Mamlakatimizda 2026-yilning 1-yanvaridan boshlab YaTTlarni soliqqa tortish tizimida sezilarli o'zgarishlar amaliyotga joriy etildi, xususan, qat'iy belgilangan miqdorlarda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini to'lash tartibi bekor qilinib, yillik aylanmasi 1 mlrd so'mgacha bo'lgan YaTTlar (hamda o'zini o'zi band qilganlar) uchun aylanmadan olinadigan soliq stavkasi 1 foiz etib belgilandi¹. Bu o'zgarishlar, avvalambor, O'zbekistonda kichik biznesni qo'llab-quvvatlash, norasmiy faoliyat yuritayotgan subyektlar faoliyatini rasmiylashtirish, raqamli platformalar asosida ulardagi soliq nazoratini kuchaytirish va soliq yukini "aylanma" bilan bog'lash maqsadlariga xizmat qiladi². Ushbu maqolada 2026-yildan YaTTlarni soliqqa tortishda amalga kiritilgan islohotlarning mazmun-mohiyati va institutsional yondashuvini tahlil qilish, soddalashtirilgan aylanma solig'i rejimlariga xos "chegaraviy ta'sir" xatarlarini baholash hamda YaTT toifalari uchun soliqqa tortish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha amaliy takliflarni ishlab chiqish maqsadida quyidagi masalalarga e'tibor qaratiladi:

- 1 foizlik aylanma solig'ining joriy qilinishi YaTTlarda norasmiy iqtisodiyotdan ixtiyoriy rasmiy iqtisodiyotga o'tishga qanday ta'sir qilishi;
- 1 mlrd so'm aylanma chegarasi atrofida "jamlanish" yoki "chegaraviy ta'sir" holatining yuzaga kelish ehtimoli;
- Raqamli platformalar va ular asosida amalga oshiriladigan ma'murchilik bu risklarni kamaytiradimi yoki kuchaytiradimi kabi masalalar.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Maxsus va soddalashtirilgan soliqqa tortish rejimlari xalqaro amaliyotda kichik biznes uchun tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishga ketadigan vaqt, ko'plab hujjatlar, turli xil muzokaralar hamda ularda o'tkaziladigan soliq nazorati bilan bog'liq xarajatlarni kamaytirishi bilan birga, agar ushbu rejim noto'g'ri qo'llanilganda "chegaraviy ta'sir"ni keltirib chiqarishi mumkin³. Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, xo'jalik yurituvchi subyektlar soliq yoki ma'muriy yuk keskin oshishiga sabab bo'ladigan, qonunchilikda belgilangan soliq rejimining o'zgarishiga olib keladigan "chegara"dan o'tmaslik uchun aylanmani sun'iy ravishda pasaytiradi yoki faoliyatini to'xtatib, yangidan boshqa nom bilan boshqa tadbirkorlik subyektini ro'yxatdan o'tkazadi. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti hisobotlarida bunday aylanmani ataylab chegaradan biroz pastda "ushlab turish" (bunching)ni kamaytirish uchun "moslashuvchan (soft) chegara" yondashuvi, masalan, chegara atrofida o'tish davri imtiyozlari yoki imtiyozli koridor belgilash tavsiya qilinadi⁴.

Xalqaro Valyuta Jamg'armasi (IMF) soddalashtirilgan aylanma solig'i rejimlarini joriy etishda: (I) soliq stavkasi juda past bo'lsa — yirik toifadagi subyektlar o'z faoliyatini "kichik" toifaga o'tkazishga intilishi ortishi va (II) aksincha, soliq stavkasi juda baland bo'lsa — rasmiylashuv susayishi mumkinligini ta'kidlaydi⁵. Shuningdek, soliq to'lovchilar uchun chegaraviy miqdorlar va stavka tanlash imkoniyatining mavjudligi rasmiylashtirish jarayonini rag'batlantirishi orqali norasmiy faoliyatni kamaytiradi.

Jahon banki tadqiqotlarida ham kichik biznes uchun joriy etiladigan soddalashtirilgan va (yoki) maxsus soliq rejimlari norasmiy sektordagi subyektlarni rasmiy ro'yxatdan o'tishga rag'batlantirishi hamda qisqa muddatda rasmiylashuv ulushi oshishi mumkinligi qayd etiladi. Shu bilan birga, soliq to'lovchilarda soddalashtirilgan va (yoki) maxsus soliq rejimlarida faoliyat yuritishlari uchun turli xil mezonlar hamda chegaraviy miqdorlarning mavjudligi atrofida soliq yukini minimallashtirishga qaratilgan oldindan o'ylangan, rejalashtirilgan moslashuvlar, masalan, aylanmani sun'iy past ko'rsatish yoki uni belgilangan chegaradan oshib ketishini "to'xtatib turish" kabilar yuzaga kelishi ehtimoli mavjud. Xalqaro Mehnat Tashkiloti (ILO) esa norasmiy sektorda faoliyat yuritayotgan subyektlarning rasmiy iqtisodiyotda rasmiylashuvi uchun faqat soliq stavkasi emas, balki "rasmiylikning foydasi" (ijtimoiy sug'urta, moliyalashtirish, bozorlar, xizmatlar, kredit olish) ustun bo'lishi zarurligini ham ta'kidlaydi⁶.

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 12.08.2025-yildagi "Yakka tartibdagi tadbirkorlar hamda o'zini o'zi band qilgan shaxslar uchun qulay shart-sharoit yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-247-sonli qarori // <https://lex.uz/uz/docs/-7681520>

2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 12.08.2025-yildagi "Yakka tartibdagi tadbirkorlar hamda o'zini o'zi band qilgan shaxslar uchun qulay shart-sharoit yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-247-sonli qarori // <https://lex.uz/uz/docs/-7681520>

3 World Bank. (2016). Small Business Tax Regimes (Revised). Washington, DC: World Bank.

4 OECD. (2024). Consumption Tax Trends 2024. Paris: OECD Publishing.

5 International Monetary Fund (IMF). (2023). How to Design a Presumptive Income Tax for Micro and Small Enterprises (How to Notes). Washington, DC: IMF.

6 International Labour Organization (ILO). (2015). Transition from the Informal to the Formal Economy Recommendation, 2015 (No. 204). Geneva: ILO.



Mamlakatimizda soliq islohotlari doirasida 2026-yilda qabul qilingan Prezident qarori va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda YaTT hamda o'zini o'zi band qilgan shaxslar uchun soliq mexanizmlarini yanada soddalashtirish masalasi raqamli transformatsiya vazifalari bilan uzviy bog'langan holda yoritiladi. Xususan, ro'yxatdan o'tkazishdan hisobot taqdim etishgacha bo'lgan jarayonlarni yagona "integratsiyalashgan raqamli platforma"da jamlash, naqdsiz to'lovlarni qabul qilish infratuzilmasini kengaytirish va ma'muriy tartib-taomillarni soddalashtirish orqali rasmiy sektorda faoliyat yuritishni rag'batlantirish ko'zda tutiladi. Bunda platforma orqali shakllanadigan pul oqimlari bo'yicha ma'lumotlardan banklar kreditlash bo'yicha qarorlar qabul qilishda foydalanishi nazarda tutilib, kichik subyektlar uchun moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini axborot asosida mustahkamlash maqsadi ilgari suriladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi 2026-yilning 1-yanvaridan boshlab YaTTlarni soliqqa tortishda amaliyotga yangi joriy etilgan o'zgarishlarning mamlakatda amalga oshirilayotgan iqtisodiy-ijtimoiy jarayonlarga ta'sirini o'rganishga qaratilgan. Bunda asosiy e'tibor qat'iy belgilangan miqdorlarda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini to'lash tartibi bekor qilinib, yillik aylanmasi 1 mlrd so'mgacha bo'lgan YaTTlarni soliqqa tortishda 1 foiz miqdorida aylanmadan olinadigan soliq qo'llanilayotgani tizimli tahlil obyekti sifatida o'rganiladi.

Metodologiyada normativ-huquqiy tahlil orqali 2026-yilning 1-yanvaridan kuchga kirgan o'zgarishlar bo'yicha qabul qilingan Prezident qarori va farmonlari, qonunchilik hujjatlaridagi huquqiy tushuntirishlar hamda ushbu hujjatlarda belgilab berilgan ustuvor yo'nalishlarga e'tibor qaratiladi.

Institutsional tahlil bilan raqamli platformalar (paynet xolis), ma'lumot almashinuvi va moliyaviy xizmatlar bilan bog'liq mexanizmlarning ma'murchilikdagi xarajatlariga ta'siri o'rganiladi.

Nazariy-iqtisodiy tahlilda chegara atrofida "to'planish" hodisasi, ya'ni ko'plab kichik aylanmaga ega bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyektlarning o'z aylanmasini ataylab soliq solish rejimi o'zgarishiga sabab bo'luvchi chegaradan biroz pastda "ushlab turishi" va soddalashtirilgan soliq rejimlari bo'yicha xalqaro tashkilotlar — Xalqaro Valyuta Jamg'armasi (IMF), Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD), Jahon banki (World Bank) tavsiyalarini taqqoslash amalga oshiriladi.

Chegaraviy ta'sirni izohlashda soddalashtirilgan model yondashuvi qo'llanildi: agar soliq to'lovchining aylanmasi 1 mlrd so'mlik chegaradan oshgandan so'ng soliq va ma'muriy yuk hamda u bilan bog'liq talablar birdaniga sezilarli orqada, u holda ayrim YaTTlar o'z aylanmasini $T = 1$ mlrd so'm atrofida saqlab qolishga, ya'ni aynan shu mezon yaqinida "to'planish"ga moyil bo'ladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

2026-yil mamlakatimizda YaTT va o'zini o'zi band qilgan shaxslarni soliqqa tortish bilan bog'liq asosiy normativ-huquqiy o'zgarishlar va ularga berilgan huquqiy tushuntirishlarga ko'ra, 2026-yilning 1-yanvaridan:

- YaTTlar uchun qat'iy belgilangan miqdorda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i to'lash tartibi bekor qilinadi;
- yillik aylanmasi 1 mlrd so'mgacha bo'lgan YaTTlar va o'zini o'zi band qilganlar uchun aylanmadan olinadigan soliq stavkasi 1 foiz etib belgilanadi.

Shuningdek, 2026-yilning 1-yanvaridan boshlab aylanma solig'i stavkasini pasaytirish tarzidagi ayrim imtiyozlar 1 foiz to'lovchi YaTT va o'zini o'zi band qilganlarga tatbiq etilmasligi norma sifatida mustahkamlangan⁷.

YaTTlarni soliqqa tortish bo'yicha yuqorida qayd etilgan ikki o'zgarish, bir tomondan, soliqlarni hisoblash va majburiyatlarni bajarish jarayonini soddalashtiradi. Bunda 1 foizlik yagona stavka aylanma bazasiga bevosita qo'llanilgani sababli hisob-kitobning murakkabligi hamda ma'muriy xarajatlar qisqaradi. Ikkinchi tomondan, 1 foizlik rejimga nisbatan stavkani pasaytirish ko'rinishidagi qo'shimcha imtiyozlarning tatbiq etilmasligi turli imtiyozli stavkalar "ustma-ust" qo'llanishi natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan normativ kolliziyalarni, ya'ni ikki yoki undan ortiq qoida bitta holatda turlicha talab qo'yishi, qaysi biri qo'llanishi noaniq bo'lib qolishi holatlarini cheklab, rejimning yaxlitligini mustahkamlaydi.

Biroq maxsus yoki soddalashtirilgan rejim sharoitida rasmiy ro'yxatdan o'tishni rag'batlantirishni asosan pasaytirilgan stavkalar va ulardagi farqlar orqali emas, balki "rasmiylik dividendi" — ya'ni YaTT yoki o'zini o'zi band qilgan shaxs rasmiy ro'yxatdan o'tib, qonuniy ishlagani evaziga oladigan qo'shimcha foyda, ustunliklar majmui (iqtisodiy va institutsional manfaatlar) orqali kuchaytirilishi lozim.

Bunda iqtisodiy va institutsional manfaatlar (rasmiylik dividendi) quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin:

- Moliyalashtirish/kreditga kirish: banklar uchun tushum va operatsiyalar tarixini ko'rish, tahlil qilish imkoniyati paydo bo'ladi, YaTTlar uchun kredit olish osonlashadi;

7 O'zbekiston Respublikasining 25.12.2025 yildagi O'RB-1108-sonli Qonuni, (2026-yildan kuchga kirgan soliq normalari), Lex.uz.

• Raqamli servislari: onlayn ro'yxatdan o'tish, avtomatik hisob-kitob, elektron to'lov/cheklar, soddalashtirilgan hisobot;

- Bozorlarga kirish: yirik xaridorlar, davlat xaridlari, rasmiy shartnomalar va B2B hamkorlik imkoniyati;
- Huquqiy himoya: shartnoma huquqi, nizolarni hal qilish, mulk va talablarni himoya qilish qulaylashadi;
- Ijtimoiy kafolatlar: pensiya/ijtimoiy sug'urta tizimlariga ulanish;
- Reputatsiya va shaffoflik: hamkorlar va mijozlar oldida ishonchlilik oshadi.

1 foizlik aylanma solig'ining joriy etilishi natijasida kutiladigan ijobiy jihatlar:

(a) Adolat va proporsionallik. Qat'iy to'lovdan aylanmaga bog'langan to'lovga o'tish, ayniqsa aylanmasi kichik bo'lgan YaTTlar uchun soliq yukini kamaytiradi (gorizontal adolatni yaxshilaydi);

(b) Ma'murchilik soddaligi. Aylanmadan soliq to'lashga asoslangan soliq bazasi mikro-biznes uchun umumbelgilangan, ya'ni foydaga asoslanib soliq to'lanadigan bazaga nisbatan hisob yuritish nuqtayi nazaridan kamroq xarajat talab qiladi. Daromad-xarajatlarni to'liq hujjatlashtirish, amortizatsiya va tannarxni ajratish kabi murakkab hisob-kitoblar mavjud emasligi sababli soliqni hisoblash ham, hisobot topshirish ham soddalashtirib, majburiyatlar bilan bog'liq xarajatlarni kamayadi. Ushbu jihat soddalashtirilgan rejimlarning amaliy ustunligi sifatida xalqaro tajriba va xususan Xalqaro Valyuta Jamg'armasi tadqiqotlarida alohida ta'kidlanadi;

(c) Qonuniy ro'yxatdan o'tish rag'bat. Soddalashtirilgan rejimlarni joriy etish orqali yuqorida keltirib o'tilgan pasaytirilgan stavka va rasmiylik dividendi sharoitlarida yangi ro'yxatdan o'tgan subyektlar soni oshishi mumkin. Shuningdek, xalqaro empirik dalillarda ham ayrim mamlakatlarda bunday rejimlar joriy etilgach, yangi ro'yxatdan o'tgan firmalar soni va rasmiy faoliyat ko'lamining oshishi kuzatilishi mumkinligi qayd etiladi. Biroq bu ta'sir barqaror bo'lishi uchun rag'bat faqat past stavkaga emas, balki rasmiy maqom beradigan "rasmiylik dividendi"ga — ya'ni raqamli servislari, moliyaviy xizmatlarga kirish, huquqiy himoya va bozor infratuzilmasi imkoniyatlariga ham tayangan bo'lishi lozim.

Yuqorida sanab o'tilgan YaTT va o'zini o'zi band qilgan shaxslarni soliqqa tortishda qo'llanilayotgan soddalashtirilgan rejimning ijobiy tomonlaridan tashqari, undagi asosiy xatar 1 mlrd so'm atrofida paydo bo'ladigan "chegaraviy ta'sir" (soliq va ma'muriy yuk hamda u bilan bog'liq talablar birdaniga sezilarli ortishi) bo'lishi mumkin.

1 mlrd so'mlik chegara — soddalashtirilgan rejimning asosiy mezoni hisoblanadi. Qonunchilikda ham soliq to'lovchining yillik aylanmasi "1 mlrd so'mgacha" bo'lsa, belgilangan stavkada (imtiyozli 1 foiz) soliq to'lashi, ushbu summadan oshgan taqdirda umumbelgilangan tartibda soliq (foyda solig'i 15 foiz) to'lashi lozimligi belgilangan. Soddalashtirilgan hamda umumbelgilangan tartibda soliqqa tortish rejimlari o'rtasidagi soliq stavkalarining farqi sezilarli bo'lishi YaTTlarda aylanmasini belgilangan chegaradan oshirib yubormaslik maqsadida quyidagi xatti-harakatlar kuchayish ehtimolini yuzaga keltiradi, jumladan:

- aylanmani bo'lib ko'rsatish (bir nechta YaTTni ro'yxatdan o'tkazish orqali faoliyat ko'rsatish);
- realizatsiyani kechiktirish yoki oldinga surish (davrlar bo'yicha amalga oshirilgan realizatsiyalar sanalarini o'zgartirish);
- naqd pulda savdo qoidalariga rioya qilmaslik (raqamli platformalardan foydalanishni cheklash yoki foydalanishni kamaytirish orqali haqiqiy aylanmani ko'rsatmaslik).

Yuqorida keltirib o'tilgan holatlar xalqaro adabiyotlarda, xususan QQS bo'yicha ro'yxatdan o'tish chegaralari hamda soddalashtirilgan rejimlar kontekstida keng qayd etiladigan "chegara atrofida to'planish" jarayoni orqali izohlanadi. Ya'ni, chegaraga yaqinlashgan sari ayrim subyektlarda o'sish sur'atlari sekinlashadi yoki ular soliq va ma'muriy yukning keskin oshishidan qochish maqsadida aylanmani ma'lum darajada "ushlab turish" strategiyasini tanlaydi.

Umuman olganda, 1 foizlik aylanma solig'i stavkasi ma'lum institutsional sharoitlarda rasmiylashuvni rag'batlantirishi, xususan mikrofaoliyat subyektlari uchun soliq tizimiga kirish xarajatlarni pasaytirishi mumkin. Biroq soliq rejimiga o'tishni belgilovchi chegaraviy miqdordan so'ng o'zgaradigan soliq stavkalari keskin sakrash xarakteriga ega bo'lsa, subyektlarda aylanmani "o'sishni kamaytirish yoki to'xtatish" xavfi kuchayadi hamda aylanmani ataylab chegaradan biroz pastda "ushlab turish" xatti-harakatlarini rag'batlantiradi.

Shu bois ushbu toifa vakillarini soliqqa tortishda faqat stavka parametriga tayanib qolmasdan, (i) imtiyozli stavka, (ii) chegaradan o'tishda yukni silliqlashtiruvchi "yumshoq o'tish" mexanizmlari (imtiyozli koridor, bosqichma-bosqich o'tish), hamda (iii) rasmiy maqomning institutsional ustunliklarini kuchaytiruvchi "rasmiylik dividendi" (raqamli servislari, moliyaviy xizmatlarga kirish, huquqiy himoya va bozor infratuzilmasi) elementlarini o'zaro uyg'un holda qo'llash zarur.

Mamlakatimizda YaTTlarni soliqqa tortishni yanada takomillashtirish yuzasidan qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarda raqamli platformalar orqali YaTT va o'zini o'zi band qilganlarga xizmatlar ko'rsatish, shuningdek raqamli platformalardagi pul aylanmalari bo'yicha ma'lumotlarning kredit infratuzilmasiga integratsiyasini yo'lga qo'yish (kredit olishni yengillashtirish) kabi yo'nalishlar belgilab berildi.

Bu tartibning joriy etilishi ilmiy adabiyotlardagi "rasmiylashuv dividendi" g'oyasiga mos bo'lib, rasmiylashuvning foydasi (moliya, xizmatlar, ijtimoiy himoya) xarajatlardan ustun bo'lsa, ixtiyoriy ro'yxatdan o'tish, ya'ni rasmiylashuv ortadi.



Bundan tashqari, raqamli xizmatlar real amaliy foyda bermasa (kredit, sug'urta, davlat xizmatlari), soliq stavkasini 1 foizlik stavka qilib belgilashning o'zi yetarli bo'lmisligi mumkin. Shu bois raqamli platformalarni joriy etishda uni soliq ma'murchiligidan tashqari iqtisodiy rag'batlar bilan ham bog'lash lozim bo'ladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqorida qayd etib o'tilgan soliq to'lovchi YaTTlarni soliqqa tortishda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan, ular tomonidan aylanmani "o'sishni kamaytirish yoki to'xtatish" hamda aylanmani ataylab chegaradan biroz pastda "ushlab turish" holatlarini bartaraf etish bo'yicha quyidagi takliflarni amaliyotga joriy etish tavsiya etiladi.

"Yumshoq o'tish yo'lagi"ni joriy etish. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti tomonidan taklif etilayotgan ushbu yondashuvga ko'ra, kichik biznes subyektlari qonunchilikda belgilangan soliq rejimini o'zgartirishga sabab bo'ladigan chegaraga yetib kelganlarida darhol ularga nisbatan umumbelgilangan rejimga o'tishni qat'iy majburiyat sifatida qo'llamasdan, ma'lum foiz/vaqt yo'lagi orqali bosqichma-bosqich o'tish imkoniyatini yaratib berish nazarda tutiladi. Bu o'z navbatida aylanmani ataylab chegaradan biroz pastda "ushlab turish" (bunching) ni kamaytirishi mumkin.

Mamlakatimizda bunga soliq to'lovchilarning yillik aylanmasi 1 mlrd so'mga yaqinlashganda (masalan, 0,8–1,3 mlrd) ma'murchilik talablarini keskin o'zgartirmasdan, ushbu oraliqdagi aylanmaga ega soliq to'lovchilarga bosqichli soliqqa tortish tartibini o'rnatish orqali erishish mumkin.

Ixtiyoriy QQSga o'tishni "tizimli yondashuv" bilan rag'batlantirish. YaTTlar uchun QQSga o'tish jarayoni "jazolovchi" signal sifatida emas, balki tadbirkorlik faoliyati o'sishini qo'llab-quvvatlovchi institutsional mexanizm sifatida shakllantirilishi lozim. Buning uchun QQSga o'tish bilan bog'liq komplayens va tranzaksiya xarajatlarini kamaytiradigan xizmatlar majmui — elektron hisob-faktura va e-hisob yuritishni soddalashtirish, kontragentlar bilan rasmiy hisob-kitoblarni qulaylashtirish, QQSni qaytarish tartib-taomillarida aniqlik va intizomni ta'minlash, shuningdek bank xizmatlari (hisobvaraqlar, to'lov infratuzilmasi, aylanma mablag'larni moliyalashtirish)ni "paket" ko'rinishida taklif etish maqsadga muvofiq. Mazkur yondashuv QQSga o'tishdagi to'siqlarni pasaytirib, firmalarning miqyosni kengaytirishiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan "chegaraviy" rag'batlarni kamaytiradi. QQS ma'muriyatchiligi va uning biznesga ta'siri bo'yicha Jahon banki tahlillarida ham, umumiy jihatdan, soliq stavkalaridan tashqari ma'murchilik sifati, qaytarish mexanizmlarining ishonchligi va xizmatlar ekotizimi rasmiylashuv hamda iqtisodiy o'sish uchun hal qiluvchi omillar ekani ta'kidlanadi.

"Rasmiylik dividendi"ni institutsionallashtirish (kredit, ijtimoiy himoya xizmatlari). Raqamli platforma ma'lumotlarining kredit infratuzilmasiga kiritilishini amaliyotda to'liq va tizimli ishlashiga sharoit yaratilsa (tezkor mikro-kredit, scoring), YaTTlar aylanmani yashirishdan ko'ra "yashirmaslik" yo'lini ko'proq tanlaydi.

Sohalar kesimida ulardagi mavjud xatarlarga asoslangan holda nazorat tadbirlarini o'tkazish. Naqd pulda savdo qilish ulushi yuqori sohalarda (ayrim xizmat turlari) raqamli chek/QR-kod talablari bo'yicha qonunchilikda belgilab berilgan normalarning bajarilishi intizomini kuchaytirish, naqd pulda savdo qilish ulushi past bo'lgan sohalarda esa tekshiruvlarni bir muncha minimallashtirish lozim. Bu ixtiyoriy majburiyatlarning bajarilishiga salbiy ta'sir ko'rsatmasdan, soliq organlariga maqsadli nazorat tadbirlarini olib borish imkonini beradi (IMFning risk va dizayn mantiqlariga mos).

Kichik biznes uchun avtomatik "hisobot yuborish". Ma'lumotlar platformadan avtomatik yig'ilib, soliq bazasi soliq to'lovchi tomonidan emas, balki soliq organlari hamda platforma orqali hisoblanishi mikro-biznesning tranzaksiya xarajatlari kamayishiga hamda rasmiylashuvning osonlashishi va oshishiga xizmat qiladi (ushbu yondashuv Xalqaro Mehnat Tashkilotining rasmiylashuv bo'yicha bergan tavsiyalari bilan uyg'un).

Xulosa sifatida mamlakatimizda 2026-yilning 1-yanvaridan kuchga kirgan o'zgarishlar YaTTlarni soliqqa tortishda "qat'iy belgilangan daromad solig'i to'lovi"dan "aylanmaga bog'langan" soddaroq modelga o'tishni anglatadi. Jismoniy shaxslardan qat'iy belgilangan tartibda daromad solig'i undirish bekor qilinadi va 1 mlrd so'mgacha aylanmaga 1 foiz stavka qo'llanadi. Bu kiritilgan o'zgartirishlar YaTTlarni soliqqa tortishda soliq ma'murchiligini soddalashtirishga va adolatni ta'minlashga xizmat qiladi.

Biroq 1 mlrd so'mlik miqdor "chegaraviy ta'sir" xatarini, jumladan:

- faoliyatni bir nechta YaTT/o'zini o'zi band qilgan shaxs nomiga ajratish orqali aylanmani bo'lib ko'rsatish;
- aylanmani yashirish, ataylab chegaradan biroz pastda "ushlab turish" kabi holatlarni keltirib chiqarishi mumkin.

Bu va shunga o'xshash xatarlar xalqaro tajribada keng qayd etilgan bo'lib, ular "yumshoq o'tish koridori", ixtiyoriy QQSga o'tishni rag'batlantirish va rasmiylik dividendini kuchaytirish kabi mexanizmlar orqali yumshatiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 12.08.2025-yildagi "Yakka tartibdagi tadbirkorlar hamda o'zini o'zi band qilgan shaxslar uchun qulay shart-sharoit yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-247-sonli qarori // <https://lex.uz/uz/docs/-7681520>



2. O'zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrda "Soliq va budget siyosatining 2026-yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-1108-sonli Qonuni, (2026-yil 1-yanvardan kuchga kirgan) // <https://lex.uz/uz/docs/-7944527>
3. International Monetary Fund (IMF). (2023). How to Design a Presumptive Income Tax for Micro and Small Enterprises (How to Notes). Washington, DC: IMF.
4. OECD. (2024). Consumption Tax Trends 2024: VAT/GST and Excise Rates, Trends and Policy Issues. Paris: OECD Publishing.
5. OECD. (2023). The Design of Presumptive Tax Regimes (OECD Taxation Working Papers, No. 59). Paris: OECD Publishing.
6. World Bank. (2016). Small Business Tax Regimes (Revised). Washington, DC: World Bank.
7. Hoy, C. (2024). Trade-Offs in the Design of Simplified Tax Regimes: Evidence and Implications. Washington, DC: World Bank.
8. Lee, H. C. (2016). Can Electronic Tax Invoicing Improve Tax Compliance? (Policy Research Working Paper). Washington, DC: World Bank.
9. International Labour Organization (ILO). (2015). Transition from the Informal to the Formal Economy Recommendation, 2015 (No. 204). Geneva: ILO.
10. International Labour Organization (ILO). (2017). Formalization and Access to Finance (policy/resource materials on formalization incentives). Geneva: ILO.
11. Ravshanbekovich, Y. S. A. (2025). YAKKA TARTIBDAGI TADBIRKORLAR FAOLIYATINI SOLIQQA TORTISH MEXANIZMINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI. Labor economics and human capital, 4(3), 186-198.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100